



BOLA HUQUQLARI KLASSIFIKATSIYASI: XALQARO HUQUQIY VA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARIDA

Sharaxmetova Umida Shaakbarovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrasi professori,

yuridik fanlar nomzodi, E-mail: Sharaxmetova74@list.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13369674>

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2024

Accepted: 12th August 2024

Published: 14th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 1-moddasiga ko‘ra 18 yoshga to‘lmagan har qanday inson bola hisoblanadi. Biroq, Konvensiyada ham, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga muvofiq qabul qilingan oila huquqining asosiy hujjatlarida ham bolaning aniq ta‘rifiga qaramay, oila qonunchiligi ushbu huquq sub‘ektiga murojaat qilish uchun turli atamalardan foydalanadi: «bola», «voyaga yetmagan bola», «voyaga yetmaganlar». Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasi ota-onalarning voyaga yetmagan bolalariga ta‘minot berishi shartligini mustahkamaydi, uning 96-108-moddalari aliment miqdorini, to‘lash tartibini, bolalarning ta‘minoti uchun qilinadigan qo‘shimcha xarajatlar, aliment miqdorini kamaytirish yoki undan ozod etish tartibini belgilaydi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, agar bola o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar to‘liq fuqarolik layoqatiga ega bo‘lsa ham, u “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya va Oila kodeksiga muvofiq bola bo‘lib qoladi, chunki bu aktlar bolaning maqomining bekor qilinishi bola to‘liq fuqarolik layoqatiga ega bo‘lgan holda emas, balki o‘n sakkiz yoshga to‘lganligi bilan bog‘liq (voyaga yetganligi). Oila kodeksi to‘liq fuqarolik layoqatini muddatidan oldin egallashni, bunday bolalarning ota-onalari faqat Oila kodeksining 11-bobida nazarda tutilgan majburiyatlarning bekor qilinishi bilan bog‘laydi. Ota-ona o‘z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huquqlari). Ushbu bobda nazarda tutilgan ota-onalik huquqlari bolalar o‘n sakkiz yoshga to‘lganlarida (voyaga yetganda), shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lganlarida tugaydi.(OK 71-moddasi).

“Bola” tushunchasiga huquqiy ta‘rif berishning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda shuni ta‘kidlash mumkinki, qonun chiqaruvchi o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar nikohga kirishga ham yoki emansipatsiya qilinganda ham, lekin bola maqomini saqlab qoladi. Shunday qilib, Oila kodeksining 40-moddasiga ko‘ra, umumiy voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan er-xotinlar o‘rtasidagi nikohni bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Bu holda mezon bolalarning huquqiy layoqati darajasi emas, balki yoshi hisoblanadi, shuning uchun qonun chiqaruvchi bolalar va ularning huquqlarini himoya qiladi, er-xotinga voyaga yetmagan bolalarning (er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta‘minot berish uchun

mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori OK 44-moddasi) taqdiri haqidagi masalalarga aniqlik kiritmasdan, FHDYo organida nikohdan ajralishga yo'l qo'ymaydi.

Voyaga yetmagan bola nikohga kirgandan keyin ham bola maqomiga qaytishi mumkin va ota-onalarga yana Oila Kodeksining 11-bobida nazarda tutilgan majburiyatlar yuklanadi, agar FK ning 22-moddasining 4-bandiga muvofiq, nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin."Bolalar" termini Oila Kodeksida faqat ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi (Oila Kodeksining 148-150 moddalari). Ba'zi hollarda "bolalar" atamasi ota-ona va bola o'rtasidagi oilaviy aloqalarni ko'rsatish uchun ishlatiladi, asosiy e'tibor ota-onaning bolaga g'amxo'rlik qilish, tarbiyalash va bola bilan muloqot qilish bo'yicha ota-onalik majburiyatlarini bajarishiga qaratilgan (masalan, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi) yoki aksincha, voyaga yetgan bolalar ularning ota-onalari oldidagi majburiyatlarni bajarishda ifodalangan. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir va Oila kodeksining 109-111-moddalari voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berishi va ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar majburiyatini belgilaydi.

Konstitutsiyaviy huquq sohasi mutaxassislari xalqaro huquqiy hujjatlarda bolaning huquqlarini hisobga olgan holda va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga e'tibor qaratgan holda, bola huquqlarini quyidagi guruhlariga bo'lishni taklif qiladilar:

1. Bolaning yashash huquqi, ismi, boshqa huquqlarni amalga oshirishdagi tengligi.
2. Bolaning oilaviy farovonlikka bo'lgan huquqlari.
3. Erkin shaxsiy rivojlanish huquqlari.
4. Bola salomatligini muhofaza qilishni ta'minlovchi huquqlar.
5. Ta'lim olish va dam olish huquqi.
6. Eksploatatsiya, g'ayriinsoniy mazmun va muomaladan himoyalaniş huquqi¹.

Fikrimizcha, bu tasnifda bolaga tegishli barcha huquqlar hisobga olinmagan. Muallif bolaning ota-onadan aliment olish huquqini oilaviy farovonlikka bo'lgan huquqlari guruhiga kiritgan bo'lsa, unda aytish mumkinki, ota-onalar, ota-onalik huquqidan mahrum bo'lganligi munosabati bilan bolalar ta'lim muassasasiga joylashtirilgan bola oilaviy farovonlik huquqiga ega, ota-onalar faqat huquqlardan mahrum bo'lgan va ularda aliment to'lash majburiyati saqlanib qoladi. Bolaning ta'minotga yoki alimentga bo'lgan huquqini g'ayriinsoniy mazmun va muomaladan himoyalaniş huquqi toifasiga kiritish ham bir muncha chalkashliklarni kelditirib chiqaradi.

Bola huquqlarining biroz boshqacha tasnifi N.V. Kombarov Rossiya qonunchiligida ishlab chiqilgan inson huquqlari tasnifiga asoslanib, quyidagi bolalar huquqlari guruhlarini ajratib ko'rsatishni taklif qiladi:

¹ Бутыко О.В. Правовой статус ребенка: Теоретико-правовой анализ: дис. ... канд. юрид. наук. Краснодар, 2004. С. 78.

1. Bolaning shaxsiy huquqlari, shu jumladan quyidagi huquqlar: yashash; shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; shaxsning, yashash joyining, shaxsiy hayotining daxlsizligi, yozishmalar, telefon suhbatlari, pochta, telegraf va boshqa aloqa shakllarining siri to'g'risida; fikrlash, so'z erkinligi, axborotdan erkin foydalanish; vijdon va din yerkinligiga; erkin harakatlanish, yashash va yashash joyini tanlash; oilaviy huquqlar: oilada yashash va tarbiya olish huquqi, ota-onasini bilish va ular tomonidan g'amxo'rlik qilish huquqi, ular bilan yashash huquqi, ota-onasi tomonidan tarbiyalanish huquqi; manfaatlarini va uning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishni, ota-onasi, bobosi, buvisi, aka-uka, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqini, ism, otasining ismi va familiyasiga bo'lgan huquqni ta'minlash;
2. Siyosiy huquq va erkinliklar, shu jumladan huquqlar: tinch, qurolsiz yig'ilish, mitinglar, yig'ilishlar o'tkazish;
3. Bolaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquq va erkinliklari, shu jumladan huquqlar: o'z qobiliyati va mulkidan tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa iqtisodiy faoliyat uchun erkin foydalanish; bolaning shaxsiy mulkka ega bo'lishi; uy-joy tanlash; sog'liqni saqlash va tibbiy yordam uchun; ijtimoiy ta'minot uchun; mehnat qilish; ta'lim olish; jamiyatning madaniy va ijodiy hayotida ishtirok etish². Ko'rinishidan, bola huquqlarining bunday tasnifi juda keng va bolaning o'ziga xos huquqlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Bir tomondan, yuqoridagi tasnif Konstitutsiyada nazarda tutilgan shaxs va fuqaroning barcha huquqlarini o'z ichiga oladi, bu huquqlarning mavjudligini shaxs va fuqaroning yoshiga bog'liq qilmaydi, hammaga barobar tegishli bo'ladi.

Boshqa tomondan, oiladagi bolaning huquqlarini tasniflash, muallif ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatmaydi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlari hisobga olmagan holda, ularni huquqlarini cheklaydi. Xuddi birinchi tasnifdagi kabi, bolaning ota-onadan aliment olish huquqi hisobga olinmaydi. Bu yerda faqat ijtimoiy ta'minot huquqi ko'rsatilgan bo'lib, u ota-onadan ta'minot olish huquqini o'z ichiga olmaydi, lekin davlatdan oilalarga nafaqa, nafaqa, moddiy yordam olish huquqini o'z ichiga oladi. Oila va fuqarolik qonunchiligida bola huquqlari institutini chuqurroq o'rganish uchun, birinchi navbatda, Fuqarolik Kodeksida mustahkamlangan shaxsiy va mulkiy huquqlarga bo'lgan huquqlarning tasnifidan foydalanish kerak, deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, fuqarolik va oilaviy huquq sohasidagi mutaxassislarining aksariyat ishlarida aks ettirilgan Oila kodeksi tomonidan nazarda tutilgan bola huquqlarining tasnifi, ularni amalga oshirish va himoya qilish uchun turli huquqiy mexanizmlar talab qilinadi.

Oila va fuqarolik huquqida voyaga yetmaganlarning huquqlari shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga bo'linadi. Ushbu huquqlar tartibi O'zbekiston Respublikasi Oida kodeksida 65-70 moddalarida bolaning shaxsiy nomulkiy huquqlari, 90-95 moddalari- ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari; 96-116- moddalari-ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari mustahkamlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Fuqarolik Kodeksining 2-moddasida ushbu huquqlar teskari tartibda sanab o'tilgan. Bizning fikrimizcha, bu holat hech qanday tarzda ma'lum huquqlarning muhimlik darajasini yoki oila huquqini boshqa huquqlardan farq qiluvchi o'ziga xos huquqiy tartibga solish predmetiga ega bo'lgan mustaqil huquq sohasi sifatida ajratib ko'rsatish zarurligini ko'rsatmaydi. Ushbu pozitsiyani qo'llab-quvvatlagan holda O.S. Ioffening pozitsiyasini yodga olish mumkin, u shaxsiy va mulkiy munosabatlarning o'zaro

² Комбаров Н.В. Институт прав и свобод ребенка: понятие, содержание, признаки // Ленинградский юридический журнал. 2009. № 4. С. 100-102.

bog'liqligini qaramlik yoki bo'ysunish deb talqin qilishga keskin e'tiroz bildirib, faqat ularning kombinatsiyasi haqida gapirish o'rinli deb hisoblaydi.³

Shaxsiy nomulkiy huquqlar shaxsiy xususiyatga ega bo'lib, shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug'ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlar tortib olinmaydi va o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi (FK 99-moddasi). A.M. Nechaevaning fikriga ko'ra, bolaning shaxsiy huquqlari: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-onalar va boshqa qarindoshlar bilan ko'rishish huquqi, himoyaga bo'lgan huquqi, o'z fikrini ifoda etish huquqi, ismi, otasining ismi va familiyaga bo'lgan huquqi - turli maqsadlarni ko'zlagan, turli mazmunga ega bo'lgan huquqlar tushuniladi⁴. A.M Nechaeva tomonidan keltirilgan bolaning shaxsiy nomulkiy huquqlari ro'yxati to'liq hisoblanib, uning pozitsiyasini boshqa taniqli olimlar - L.M. Pchelinseva, L.Yu. Grudsin, Yu.F. Bepalov va boshqalar⁵. Shu bilan birga, Yu.F. Bepalov shaxsiy nomulkiy huquqlarni ham tasniflaydi, ularni maqsadiga ko'ra huquqlarga ajratadi: bolani individuallashtiruvchi huquqlar; bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash; bolani oila huquqlarining mustaqil sub'ekti sifatida belgilash; bolaning himoyasi va vakilligini ta'minlovchi huquqlar⁶. O'z navbatida, ba'zi mualliflar bola huquqlari tizimiga huquqiy tartibga solinmaydigan huquqlarni kiritadilar. Masalan, I.G. Korol bolalarning ota-onaga bo'lgan muhabbatini, mehrini, ishonchini, ota-onaga hurmatini⁷ alohida ta'kidlaydi, garchi bu toifalar huquq emasligi shubhasizdir, chunki huquq insonning mumkin bo'lgan, ruxsat etilgan xatti-harakati va huquqning boshqa shaxslarning huquqlari bilan cheklanishi mumkinligi o'lchovi sifatida tushuniladi. Demak, sevgi sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning o'lchovini aniqlash mumkin emas. Muallif tomonidan alohida sub'ektiv huquqlar sifatida ajratib ko'rsatilgan ota-onalarga bo'lgan muhabbat, ularga bo'lgan mehr yoki hurmat o'rtasida aniq chegara mavjud emas. Umuman olganda, ota-onani hurmat qilmaslikni keltirib chiqaradi, bu huquq normalari bilan emas, balki odob-axloq normalari bilan tartibga solinadi.

Bolaning huquqlarini navbatdagi turi ta'lim olishga bo'lgan huquqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" deb ta'kidladi⁸. 24 yanvar Xalqaro ta'lim kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu sana Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan ta'limning tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi ahamiyatini e'tirof

³ Иоффе О.С. Указ. соч. С. 183.

⁴ Нечаева А.М. Указ. соч. С. 219

⁵ Пчелинцева Л.М. Указ. соч. С. 271; Грудцына Л.Ю. Словарь-справочник по семейному праву России. М., 2006. С. 139; Беспалов Ю.Ф. Семейно-правовое положение ребенка в Российской Федерации: монография. 2-е изд., перераб. и доп. М., 2013. С. 62.

⁶ Беспалов Ю.Ф. Указ. соч. С. 62-63.

⁷ Король И.Г. Личные неимущественные права ребенка по семейному праву Российской Федерации: научно-практическое пособие. М., 2013. С. 58.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси, 20 декабрь, 2022 йил <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

etgan holda "Xalqaro ta'lim kuni" deb e'lon qilingan. Bu haqdagi rezolyusiya 2018 yil 3 dekabrda qabul qilingan.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim masalasi ko'plab xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida ta'lim olish har bir insonning huquqi ekani belgilab qo'yilgan. U davlatlarni barcha uchun bepul boshlang'ich ta'lim olishni ta'minlashga chaqiradi. 1989 yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya esa davlatning barcha uchun oliy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga majburligi haqidagi qoidani o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi ta'lim olish huquqini amalga oshirish bilan bog'liq holda, ta'lim sohasida vujudga keladigan jamoat munosabatlari "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50 -modda).

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonun bilan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan bo'lib, ular asosan ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyiligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda ta'limning maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'lim kabi turlari bayon etilgan.

Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi, shuningdek, oilada tarbiyalanish va yashash huquqi, birinchi navbatda, axloqiy xususiyatga ega. Ma'lumki, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, keksa oila a'zolaridan kichiklarga tajriba o'tkazish bolaning shaxsiyatining ijtimoiylashuvi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Biroq, hech kim bolani tegishli oilaviy aloqalar o'rnatilmagan yoki uzilgan ota-onalari, bobo-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari bilan muloqot qilishga majburlay olmaydi. Fikrimizcha, bola bilan, masalan, alohida yashovchi ota-onaning bolaning xohishsiz ko'rishish uning huquqlarining buzilishiga olib keladi, ammo bu huquqning amaldagi oila qonunchiligi normalarida tartibga solinmagan.

Bolaning ko'rishishga bo'lgan huquqini buzilishi ikki holatda ifodalanishi mumkin:

Birinchi, Oila kodeksining 76-moddasiga binoan, boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega. Ushbu modda Oila kodeksining 66 -modda 2-qismi bilan hamoxangdir, ya'ni ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ammo ota-onalardan biri bola bilan ko'rishmasa bolaning krishishga bo'lgan huquqini buzilishi kelib chiqadai. Bunday holda, bolaning ko'rishish huquqini himoya qilish

haqida gapirish qiyin, bolaning ota-onasini bola bilan muloqot qilishga majburlash deyarli mumkin emas, istamaslik ota-onaning bolaga nisbatan salbiy munosabatini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga ta'sir qiladi, ya'ni uning manfaatlariga javob bermaydi. Masalan, Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo'yicha Yunusobod tumanlararo sudi C.Olimovni da'vosi bo'yicha javobgar A.Olimovga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida murojaat qildi. Javobgar sudga da'vo qo'zg'atilishidan oldin uzoq vaqt davomida bola bilan muloqot qilmaganligi, uning hayoti va sog'lig'i, o'quv jarayoni bilan qiziqmaganligi, ota-onalik majburiyatlarini bajarmaganligi aniqlangan. Bu esa Oila kodeksining 79-moddasi 2-qismida belgilangan ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asoslardan biri bo'lib hisoblanadi. Sudning bola bilan aloqa o'rnatish taklifi natija bermadi, bola unga nisbatan his-tuyg'ulari yo'qligi sababli otasi bilan ko'rishishdan bosh tortdi. Sud bolaning otaga bo'lgan bunday munosabatiga uning ota-onalik huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirishdan o'zini o'zi cheklashi sabab bo'lgan degan xulosaga keldi.

Ikkinchidan, bolani otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishishga majbur qilish. Fikrimizcha, ota-ona tomonidan bolaning manfaatlariga zid bo'lgan bola bilan ko'rish qilish huquqidan foydalanish (Oila kodeksining 75-moddasi), ya'ni ta-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Shuningdek ushbu holatni Fuqarolik kodeksining 9 -moddasiga zid hisoblash mumkin.

Oila kodeksining 76-moddasining 3 -qismiga binoan, ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Bunday kelishuvning bolaning fikrini inobatga olmagan holda tuzilishi va undan ham ko'proq bolaning irodasiga qarshi bajarilishi, bolaning manfaatlariga daxldor bo'lgan oiladagi har qanday masalani hal qilishda bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqini buzadi. (Oila kodeksining 68-moddasi).

Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi bolaning o'z manfaatlariga daxldor bo'lgan barcha masalalar bo'yicha o'z fikrini erkin ifoda etishi va bunday masala bo'yicha qaror qabul qilishda bolaning fikrini hisobga olish imkoniyatidan iborat. Bolaning fikri bolaning yoshi va yetukligiga qarab hisobga olinishi kerak (Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 12-moddasi). Bolaning fikri ota-onalar, davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bolaning muayyan harakatlariga roziligi sifatida ifodalanishi mumkin. Bolaning fikrini hisobga olish qarorga ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, bolaning bunday roziligi bolaning huquqlarini vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ismga bo'lgan huquqi fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi (Fuqarolik Kodeksining 19-moddasi), familiya, ism va otasining ismiga bo'lgan huquqni o'z ichiga oladi, unga ko'ra bola (fuqaro) huquq va majburiyatlarni oladi va amalga oshiradi. Oila qonunchiligi bolaning ism, ota ismi va familiya berish tartibini (Oila kodeksining 69-moddasi) belgilaydi va fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etish qoidalari asosida qayd etiladi. Bolaning tug'ilganligini qayd etishda unga familiya ota-onasining kelishuviga ko'ra ota yoki onaning familiyasi, shuningdek milliy an'analarga muvofiq ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo'yicha beriladi. Kelishuv bo'lmagan taqdirda nizolar vasiylik va homiylik organi, konsullik okrugida esa — konsul tomonidan hal etiladi.

Bolaga ism ota-onaning roziligiga ko'ra beriladi. Bolaga qo'shaloq ism berishga yo'l qo'yiladi (Saidahmadxo'ja, To'xtamurodjon, Gulira'no, Mirzaolim, Mirzo Ulug'bek, Roza-Mariya). Bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda, unga kelgusida uning sha'ni va qadrini kamsitishi mumkin bo'lgan ism berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bola ismiga doir kelishuv mavjud bo'lmaganda paydo bo'lgan kelishmovchilik vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Bolaning ota ismi uning otasining ismiga ko'ra beriladi. Otasi haqida ma'lumotlar tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi va guvohnomada yozuvlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'zgartirishsiz yoziladi. Tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvida «Otasi» va «Onasi» ustunlarini ochiq qoldirish qat'iy man etiladi⁹.

Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi moddiy va protsessual jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab huquqdir.

Bir tomondan, bolaning himoya qilish huquqi ota-onalar tomonidan har qanday huquqiy munosabatlarda bolaning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi, agar bola yoshi va layoqatiga ko'ra o'z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshira olmasa, ota-onalar ularning qonuniy vakillari sifatida o'z majburiyatlarini bajarishda bolaga huquqlardan foydalanishga yordam berish yoki shu bilan uni huquqdan foydalanmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan himoya qilishdan iborat bo'ladi.

Boshqa tomondan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiradi (Oila kodeksining 67-moddasining 2 -qismi).

Fikrimizcha, bu huquqning har ikki tomoni fuqarolik va fuqarolik protsessual huquq normalari bilan tartibga solinadi. Oila kodeksining 74-moddasiga binoan, ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Fuqarolik protsessual kodeksining 42-moddasining 5-qismiga binoan, o'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi bolalarning, shuningdek ruhiy holati buzilganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari — ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi.

Bolani mustaqil ravishda sudga murojaat qilish tartibi Oila kodeksining 76-moddasining 5 -qismida o'z ifidasini topgan, unga ko'ra, bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksining 42-moddasining 2-qismiga binoan, ota-onalardan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha, shuningdek mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega. Bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlarni yoki homiylarni jalb qilish to'g'risidagi masala sud tomonidan hal qilinadi.

Bundan tashqari, FPKning 50-moddasiga ko'ra, agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan. Shunday qilib, bolaning himoyaga bo'lgan huquqi fuqarolik va

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг қарори “Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш қоидалари”. 387-сон. 14 ноябрь 2016 й.

fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarida to'liq aks ettirilgan va oila huquqidagi tartibga solishga to'liq mos keladi. Bolaning shaxsiy nomulkiy huquqlarini tahlil qilib, ushbu huquqlarning bir qismi huquqiy normalar bilan emas, balki odob va axloq normalari bilan tartibga solinadi, bu huquqlar konstitutsiyaviy huquq normalarida mustahkamlangan. Boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar fuqarolik qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi va (yoki) fuqarolik, jinoiy, ma'muriy qonun hujjatlari normalaridan foydalangan holda himoya qilinishi kerak.

